

JADIDCHILIKDA TA'LIM, DIN VA ILMIY TAFAKKUR UYG'UNLIGI**Abduvoxidova Munisa Shavkat qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Xorijiy til va adabiyoti ingliz tili yo'nalishi

I bosqich talabasi

munisa@gmail.com**Ilmiy rahbar: M.Y.Urazaliyeva +998901236755**

ANNOTATSIYA: Maqolada ilmiy jadidchilik harakati davrida ta'lim, din va ilmiy tafakkurning o'zaro uyg'unligini tahlil qilinadi. Jadidlar islom dini asosida ilmiy ma'rifatni rivojlantirish, zamonaviy dunyoqarashni shakillantirish va xalqni jaholatdan xalos etish g'oyasini ilgari surganlar. Ularning maqsadi diniy qadriyatlarni zamonaviy fan bilan uyg'unlashtirish, milliy uyg'unlash sari yo'l ochish edi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, Ta'lim islohoti, Ma'rifat, Diniy qadriyat, Ilmiy tafakkur

Annotation: The article analyzes the interrelation of education, religion, and scientific thinking during the era of the Jadid movement. The Jadids promoted the idea of developing knowledge and enlightenment based on Islam, forming a modern worldview, and liberating the people from ignorance. Their goal was to harmonize religious values with modern science and pave the way for national revival.

Keywords: Jadidism, Educational Reform, Enlightenment, Religious Values, Scientific Thinking

Аннотация: В статье анализируется взаимосвязь образования, религии и научного мышления в период движения джадидов. Джадиды продвигали идею развития науки и просвещения на основе ислама, формирования современного мировоззрения и освобождения народа от невежества. Их цель заключалась в гармонизации религиозных ценностей с современной наукой и открытии пути к национальному возрождению.

Ключевые слова: Джадидизм, Реформа образования, Просвещение, Религиозные ценности, Научное мышление

Kirish: Jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan ijtimoiy-ma'rifiy oqim bo'lib, uning asosiy maqsadi xalqni jaholatdan chiqarish, zamonaviy dunyo bilan hamnafas rivojlantirish va millatning ma'naviy taraqqiyotini ta'minlash edi. Jadidlar ta'lim tizimiga yangicha yondashuvni joriy qilib, diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni ham o'qitish zarurligini

ilgari surdilar. Chunki ular ilm nafaqat diniy aqidalar asosida, balki ilmiy tafakkur bilan uyg'unlashgandagina jamiyat rivojiga xizmat qiladi, deb hisoblashgan.

Jadidchilik g'oyalari ta'lim va tarbiya jarayonini isloh qilish, yangi metodlar asosida maktablar tashkil etish, zamonaviy fan yutuqlarini o'rganish va ularni hayotga tatbiq etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Diniy qadriyatlar jamiyatning axloqiy poydevori sifatida e'tirof etilgan bo'lsa, ilmiy tafakkur millatning dunyoqarashini kengaytiruvchi, taraqqiyotni ta'minlovchi muhim omil sifatida baholangan. Shuning uchun ham jadidlar uchun ta'lim, din va ilmning uyg'unligi milliy o'zlikni saqlagan holda yangilanib borishning eng to'g'ri yo'li edi. Natijada jadidchilik harakati Turkiston tarixida ma'rifatparvarlikning yuksak bosqichi sifatida namoyon bo'lib, milliy uyg'unishning ideologik asosiga aylandi hamda bugungi kun ta'lim islohotlari uchun ham muhim tajriba va ma'naviy meros bo'lib xizmat qilmoqda.

Asosiy qism “Jadid” so'zi arab tilidan olingan bo'lib, “yangi”, “yangilanish tarafdori” degan ma'noni anglatadi. Jadidchilik harakatining asosiy maqsadi xalqni jaholatdan xalos etish, yangi usulda ta'lim berish, ilm-fan yutuqlarini xalq hayotiga tatbiq etish edi. Jadidchilikda din va ilmiy tafakkur uyg'unligi muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Bu uyg'unlik, aslida, zamonaviy jamiyatda din va ilm-fanning qarama-qarshiligi yo'qligini ko'rsatadi. Jadid olimlari diniy bilimlarni ilmiy bilimlar bilan birlashtirib, ularni bir-biriga zid emas, balki bir-birini to'ldiruvchi tushuncha sifatida ko'rdilar. Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon jadidchilik harakatlarining yirik namoyandasi – Turkiston Millatini Jaholat zulmatidan ma'rifat nuri sari olib chiqqan buyuk zotlardir. Ular ilm, din va milliy g'ururni uyg'unlashtirib, zamonaviy o'zbek tafakkuriga yangicha islohotlar kiritib poydevor qo'yganlar. Ularning asosiy maqsadlari jaholat botqog'iga botib borayotgan Turkiston xalqini uyg'otish va xalqni mustaqil bo'lishga da'vat etish edi va Turkiston millatini jaholat zulmatidan ma'rifat nuri sari olib chiqish edi.

Jadidchilikda ta'lim. Bunga misol qilib shularni aytishim mumkinki, Toshkentlik Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931) 7 yoshida yetim qolib, oilasi boshiga qiyin kulfatlar kelishiga qaramasdan boshlang'ich ta'limni onasidan olib, keyinchalik 10 yoshga to'lgandan keyin Buxoroda tahsil oladi va u yerda fiqh ilmi tahsiliga beriladi. Buxorodan qaytgach, Toshkentga kelib, ilk bor mustaqil faoliyat yuritib, xalqqa islom ilmi nurini yoyadi. Ana o'sha paytlarda jadidchilik harakatini gazeta va jurnallarni bosib chiqishdan boshlaydi. Keyinchalik u o'lkadagi vatan taqdiri, mustamlakachilik, ruslashtirish islom dinini zaiflashtirish siyosati haqida o'ylay boshlaydi va ilk bor o'zining maktabini ochishga bel bog'laydi. Bu yo'lda ko'plab

qiyinchiliklarga uchrashiga qaramasdan, Munavvarqori Abdurashidxonov eng birinchilardan bo'lib jadid maktabini ochishga muvaffaq bo'ladi. Munavvarqorining bu maktabi yangi diniy va dunyoviylikka asoslangan harakatining mazmun - mohiyati va maqsad – vazifalarini o'z ichiga olib, 4 yillik „savtiya“ usuli tovush usulli maktabi eski an'anaviy maktablarga mutlaq raqobatda bo'lgan yangi jadid maktabi edi. U yana izlanishda davom etilgan va ikki yillik „RUSHDIYA“ maktabini ochib, hozirgi milliy dunyoda o'rta maxsus ta'limga asos solgan. Jadid maorifini moddiy asosini xalqning o'zi ta'minlagan. Munavvarqori jadid maktabi uchun ilk bor o'zi darsliklar ishlab chiqqan jadid hisoblanadi. Masalan, „Adibi avval“ – Alifbo darsligi (1907), „Adibi soniy“ (1907) – o'qish kitobi, „Yer yuzi“ kabi asarlarining muallifi hisoblanadi. Keyinchalik bu maktablarda matematika, geografiya, tarix, tibbiyot kabi dunyoviy fanlar ham o'qitilgan. Va jadidchilikka ergashgan bir qancha jadidlarimiz, xususan Abdurauf Fitrat ham bu yo'lda bir qancha zahmat chekadi, yosh Fitrat Istanbuldagi o'qishini tamomlagach Behbudiy tashkil etgan „Hurriyat“ gazetasida ishlaydi va Toshkentga kelib „Chig'atoy gurungi“ tashkilotini tuzishga kirishadi. Fitratning o'zi bu tashkilot faoliyati haqida shunday ma'lumot beradi: „Turk tillarini, turk adabiyotini birlashtirish shiori ostida ish ko'rildi. Maktablarda usmonli tili, usmonli adabiyoti ona tili darslari o'rnida qabul qilindi. Mana shu harakatga qarshi „Chig'atoy gurungi“ tashkil qilindi. Bunday so'zlardan seziladiki, „Chig'atoy gurungi“ umumturkiychilik g'oyalarini emas, balki o'zbek tili, adabiyoti, tarixi va san'ati masalalariga ko'proq e'tibor bergan. Bu haqida Ziyo Saidning „O'zbek vaqtida matbuot tarixiga materiallar“ kitobida shunday yozilgan: „Tong“ jurnali „Chig'atoy gurungi“ shevasi bilan davom etdi. Forsiy va arab tillarini chiqarib tashlashga qo'ldan kelgancha urindi. Bu jurnal Toshkentdagi Buxoro firqo'miga yaqin tursa ham, ko'pincha, nafis adabiyotga berildi“ degan so'zlarini eslash kifoya. Fitratning serqirra ijodiy faoliyati o'ndan ortiq tarmoqlarni o'z ichiga qamrab olgan ilmiy merosni o'z tarkibiga olgan bo'lib, avvalo, uning filolog olim sifatidagi faoliyati qadrlidir. Uning yolg'iz tilshunoslikka doir asarlari nomining o'zi olim yaratgan ilm xazinasining qamrovini tasavvur qilish imkonini beradi. „Ona tili“ darsligi (1918), „Tilimiz“ maqolasi (1919), o'zbek tilining morfologiyasi va sintaksisiga bag'ishlangan „sarf: O'zbek tili qoidalari bo'yicha bir tajriba“ (1-kitob, 1925-1929), „Nahv: O'zbek tili qoidalari bo'yicha bir tajriba“ (2-kitob, 1926-1930) ulug' olimning XX asr o'zbek va tojik tilshunosligining shakllanishidagi xizmatini ochiq ko'rsatadi.

Jadidchilikda din va ilmiy tafakkur uyg'unligi asosiy o'rin tutadi. Jadidlar diniy ta'limni yangilashga, uni zamonaviy hayotga moslashtirishga harakat qildilar. Ular diniy bilimlarni faqat tashqi yodlash emas, balki mazmunli tushunish, tafsir qilish

tarafdori bo'ldilar. Islom dini ilm o'rganishga chaqiradi, degan qarashni ilgari surishdi. Bu esa o'z navbatida, diniy bilimlarni ilmiy asosda o'rganish, tafakkur bilan uyg'unlashtirish degani edi. Diniy tafakkur insonga axloqiy qadriyatlarni, hayotiy yo'l-yo'riqni berar ekan, ilmiy tafakkur esa haqiqatni izlash, atrof-muhitni anglash va yangi bilimlarni kashf etishga xizmat qiladi. Jadidchilar bu ikki tafakkur tizimini uyg'unlashtirish orqali insonning dunyoqarashini kengaytirishga harakat qildilar. Misol uchun, jadid olimlaridan biri Bo'stonxo'ja Xo'jayev o'z asarlarida diniy ta'limning ahamiyatini tan olib, unga ilmiy bilimlarni qo'shishni targ'ib qildi. U, shuningdek, inson tafakkurining erkin bo'lishi, savodxonlikning oshirilishi orqali millatni yuksaltirish mumkinligini ta'kidladi. U diniy e'tiqodlarni jaholatdan tozalash, dinga asoslanib jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan yangi fikrlarni ilgari surish zarurligini ta'kidladi. Shu sababli, diniy bilimlarni tanqidiy tahlil qilish, ularni zamonaviy fanlar bilan uyg'unlashtirish jadidlar faoliyatining muhim jihatlaridan bo'ldi. Bu yondashuv bugungi media savodxonlikda ko'zlangan asosiy ko'nikmalar – axborotni tanqidiy baholash va manbani tekshirish bilan yaqin bog'liq. Ilmiy tafakkur insonning haqiqatga intilishi, sabablarni izlash, dalillar asosida fikr yuritish demakdir. Jadidlar ilm-fanni zamonaviy bilimlar manbai sifatida ko'rib, uni jamiyat taraqqiyotining asosi deb bilganlar. Ularning fikricha, ilm-fan taraqqiyoti diniy e'tiqodga qarshi chiqmasdan, uni yanada mustahkamlashi mumkin. Din esa insonni axloqiy tamoyillarga, iymon va e'tiqodga asoslanishga o'rgatadi. Jadidchilar dinni jamiyatda axloqiy tartibni ta'minlovchi kuch deb bilganlar. Bu esa, ilmiy tafakkur bilan birgalikda insonning nafaqat bilimli, balki ma'naviy jihatdan ham yetuk bo'lishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda ham ko'plab axborotlar diniy mazmunda bo'lsa-da, ularni tanqidiy ko'z bilan qarash, xolis va asosli ma'lumotni ajratish zarur. Jadidlarning o'sha davrdagi yondashuvi aynan shu media savodxonlik tamoyillariga mos keladi. Jadidchilikda din va ilmiy tafakkur uyg'unligi muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Bu uyg'unlik, aslida, zamonaviy jamiyatda din va ilm-fanning qarama-qarshiligi yo'qligini ko'rsatadi. Jadid olimlari diniy bilimlarni ilmiy bilimlar bilan birlashtirib, ularni bir-biriga zid emas, balki bir-birini to'ldiruvchi tushuncha sifatida ko'rdilar. Diniy tafakkur insonga axloqiy qadriyatlarni, hayotiy yo'l-yo'riqni berar ekan, ilmiy tafakkur esa haqiqatni izlash, atrof-muhitni anglash va yangi bilimlarni kashf etishga xizmat qiladi. Jadidchilar bu ikki tafakkur tizimini uyg'unlashtirish orqali insonning dunyoqarashini kengaytirishga harakat qildilar.

Xulosa: Jadidchilik davrida ta'lim, din va ilmiy tafakkur bir-biri bilan yaxshi uyg'unlashgan. Jadidlar ilm-fan va dinni qarama-qarshi emas, balki bir-birini

to'ldiruvchi yo'llar sifatida ko'rishgan. Ular zamonaviy bilimlarni o'rganish orqali odamlarning tafakkurini rivojlantirish va diniy qadriyatlarni asrab-avaylashga harakat qilishgan. Bu yondashuv jamiyatda nafaqat bilim darajasini oshirishga, balki insonlarning ma'naviy kamolotiga ham xizmat qilgan. Shunday qilib, jadidlarning ta'limda ilmiy metodlarni qo'llab, diniy ta'lim bilan uyg'unlashtirishlari o'sha davrda katta o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Bugun ham ularning fikrlari va islohotlari ta'lim va ma'naviyat sohasida biz uchun muhim yo'l-yo'riq bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. - Toshkent: 2022, 10-20 b.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent: O'qituvchi, 1992.
3. Avloniy A. Jadidlar – Toshkent: 2022, 13-81 b.
4. uz.wikipedia.org
5. www.bukhari.uz